

MUSTAQILLIK YILLARIDA NAVOIY LIRIKASINING IJTIMOY-FALSAFIY QATLAMLARDA O'RGANILISHI

STUDY OF NAVAI'S LYRICS IN SOCIAL-PHILOSOPHICAL LAYERS IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

ИЗУЧЕНИЕ ЛИРИКИ НАВАИ В СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОМ ПЛАСТЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Rahmonova Maftuna O'ktamovna

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

rahmonovam448@gmail.com +998886847444

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15734481>

Annotatsiya:

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida o'zbek navoiyshunosligining rivojlanish jarayonida Alisher Navoiy lirikasining ijtimoiy va falsafiy qatlamlarda o'rganilishiga e'tibor qaratiladi. Yangi davrda shakllangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ilmiy-metodik yondashuvlar va tafsir madaniyati Navoiy g'azallarining chuqur, k o'p qatlamli talqinlariga keng yo'l ochdi. Xususan, Najmiddin Komilovning navoiyshunoslikdagi faoliyati tahlil etilib, shoir lirikasidagi falsafiy obraz va tushunchalar bugungi davr kontekstida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Navoiy lirikasining qatlamlari, mustaqillik davri, ijtimoiy-falsafiy tahlil, tasavvuf, timsollar, zamonaviy navoiyshunoslik

Аннотация: В данной статье рассматривается изучение лирики Алишера Навои в социально-философском пласте в процессе развития узбекского навоиведения в годы независимости. Сформированные в новую эпоху духовно-нравственные ценности, научно-методологические подходы и культура интерпретации проложили путь для глубоких, многослойных интерпретаций газелей Навои. В частности, анализируется творчество Наджмиддина Камилова в навоиведении, анализируются философские образы и концепции в лирике поэта в контексте сегодняшнего дня.

Ключевые слова: Пласты лирики Навои, период независимости, социально-философский анализ, мистицизм, символы, современное навоиведение

Abstract: This article focuses on the study of Alisher Navoi's lyrics in the social and philosophical layers in the process of the development of Uzbek Navoi studies during the years of independence. The spiritual and moral values, scientific and methodological approaches and the culture of interpretation formed in the new era have paved the way for deep, multi-layered interpretations of Navoi's ghazals. In particular, the work of Najmiddin Kamilov in Navoi studies is analyzed, and the philosophical images and concepts in the poet's lyrics are analyzed in the context of today.

Keywords: Layers of Navoi's lyrics, the period of independence, socio-philosophical analysis, mysticism, symbols, modern Navoi studies

KIRISH

Alisher Navoiy o'zbek adabiyoti va madaniyatining buyuk namoyandalaridan biri b o'lib, Sharq Uy g'onish davrining eng yirik shoir va mutafakkirlaridan sanaladi. Uning ijodi nafaqat

adabiyot, balki tilshunoslik, falsafa, tasavvuf va siyosat sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy ijodining o'rganilishi tarixning har bir bosqichlarida muhim masala bo'lgan. Ayniqsa, mustaqillik yillariga kelib bu tahlillar yangicha y o'nalish kasb etganligi e'tiborga molik. Bu davr Navoiy ijodi o'rganilish po g'onasida yangi qatlam bo'ldi. Shoirning g'azaliyoti, tasavvufiy qarashlari, inson, jamiyat, adolat kabi g'oyalarni ilgari surgan lirika namunalari ijtimoiy-falsafiy kontekstda chuqurroq tahlil qilina boshlandi. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Navoiy ijodiga bo'lgan yondashuv, shoir lirik asarlari tahlillari, ularning ijtimoiy-falsafiy muhitdagi o'rni yoritib berildi.

MUHOKAMA

Istiqlol davrida Alisher Navoiy va Sharq mumtoz poetikasi, g'azallari sharhi, ijodkor adabiy-estetik an'analari, lirik asarlarida obrazlar xilma-xilligi, ularning tasavvufiy mohiyati keyingi davr ijodkorlari she'riyatidagi poetik sintezi kabi masalalarga doir Aziz Qayumov, Abduqodir Hayitmetov, Najmiddin Komilov, Suyima G'aniyeva, Ibrohim Haqqul, Muhammadjon Imomnazarov, Almaz Ulvi Binnetova, Nusratullo Jumax o'ja, Boqijon T o'xliyev, Nurboy Jabborov, Uzoq J o'raqulov, Maqsud Asadov, Karomat Mullax o'jayeva, Dilnavoz Yusupova kabi olimlarning tadqiqotlari yangi davr navoiyshunosligining zamonaviy talqini bo'ldi. Endilikda Navoiy g'azallaridagi falsafiy obrazlar, tasavvufiy timsollar, jamiyat va shaxs orasidagi murakkab munosabatlar tadqiqotlarning diqqat markaziga aylandi.

Xususan, taniqli olim Nusratullo Jumax o'ja tahlillariga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda Navoiy lirikasini poetik tuzilma, obrazlar tizimi, g'azalning ichki mazmuniy qatlamlari asosida tahlil qilganligi e'tiborimizni tortadi. Uning "Kecha kelgumdur debon,..." deb boshlanuvchi g'azal sharhiga ba g'ishlangan maqolasida olim har bir bayt sharhining ham botiniy, ham zohiriy qismlariga alohida ahamiyat berganligi ko'zga tashlanadi. Jumladan tahlilda olim g'azalni badiiy qurilma (lirik kompozitsiya) si jihatidan voqeaband g'azallarga mansubsigini ta'kidlarkan, bu asar muayyan hayotiy voqea ta'siri bilan yaratilganligi uchun ham voqeaband g'azal ekanligini aytib o'tadi. G'azaldagi lirik syujet oshiq, ya'ni lirik qahramon visol uchun va'da bergan sevikli yorini kutish iztiroblari tasviri asosiga qurilgan. Tahlichining talqinida bu iztirob oddiy hissiy holat emas, balki ma'naviy yetilish, sabr-toqat, sadoqat va ilohiy oshiqlik sinovi ekanligi badiiy timsoli sifatida ochib beriladi. Shoir tomonidan tasvirlangan kutish holati – bu vaqt bilan bo'g'liq muammo emas, balki ruhan poklanish, qalban yuksalish va ilohiy ishqqa erishish uchun zarur bo'lgan ichki safardir. Nusratilla Jumax o'ja ana shu botiniy qatlamlarni tahlil etar ekan, g'azalning har bir baytida yashiringan ma'no qatlamlarini aniqlik bilan sharhlab, Navoiy lirikasining ruhiy-falsafiy mohiyatini zamonaviy o'quvchi tafakkuri bilan uyg'un holda yoritib beradi.

Bundan tashqari, istiqlol davri Navoiy lirikasida o'rganishda Najmiddin Komilovning ham hissasi beqiyos. Najmiddin Komilov o'z ilmiy faoliyatida Navoiy ijodiyotini nafaqat adabiy-estetik mezonlar bilan, balki tasavvufiy-falsafiy jihatlarini inobatga olgan holda tahlil qiladi. Ustoz uchun Navoiy — bu shunchaki ijodkor emas, balki so'fiylik maktabining yuksak namoyondasi, fikr va ruh olamining hukmdoridir. Uning ilmiy maktabi chuqur fikriy-ma'naviy izlanishlarga tayangan bo'lib, so'zni zohiri bilan emas, botinini anglashga tayanadi.

Bu uslubda Najmiddin Komilov Navoiy g'azallaridagi ishq, ruh, haqiqat, tavhid, fano va baqo kabi tushunchalarga tasavvufiy ruh ba g'ishlaydi. Uning fikricha, Navoiyni tushunish uchun uni o'qish kifoya emas — balki uning botini bilan yashash, uni his qilish, ma'nolar olamida sayr etish zarur.

Najmiddin Komilovning eng muhim konsepsiyalaridan biri — bu “gʻazalni k oʻrish emas, uning ruhi bilan yashash” gʻoyasidir. Bu fikrda Navoiy gʻazallarining yashirin maʼnosini his etish, u bilan yashash, uni ruhiy hayotga tatbiq etish zarurati ifodalanadi. Olimning taʼkidlashicha, Navoiy s oʻzlaridan, tashbehlaridan, ramzlaridan tashqarida emas — ular orasidagi sukunatda, s oʻz aytmagan joylarida, his va ruhda yashaydi.

Shu bois Najmiddin Komilov uchun Navoiy oʻrganiladigan shoir emas, balki sukut ichra tinglanadigan mutafakkir. Gʻazal — bu ilm emas, ruhiyat. Undagi har bir s oʻz — bu gʻoyat chuqur maʼno dengizi, tafakkur manbai b oʻlib xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida Navoiy ijodini, ayniqsa, lirik asarlar tahlilida beqiyos b oʻlgan olim Maqsud Asadov ham ijodkor lirikasining badiiy-falsafiy mazmuni, timsollar tizimi va gʻazallar poetikasiga ilmiy yondashgan. Uning tadqiqotlari, mumtoz sheʼriyatni anglashda zamonaviy nazariy-metodik yondashuvlar bilan ajralib turadi.

Maqsud Asadov Alisher Navoiy lirikasini badiiy tuzilma, lirik qahramon, poetik kompozitsiya jihatidan tahlil qilib, shoir gʻazallarining botiniy uy gʻunlik, obrazlar mazmuni va uslubiy xususiyatlarini yoritgan. Uning yondashuvlarida sheʼriy til, obrazlilik, ramziy ifoda kabi unsurlar tahlil markazida turadi. Olim Navoiy lirikasidagi tasavvufiy timsollar — may, soqiy, oshiq, visol, fano kabi komponentlarning mazmuniy jihatlarini ochishga harakat qiladi. Maqsud Asadovga fikriga k oʻra, bu timsollar orqali ijodkor insoniy kechinma, qalb dunyosi, ilohiy haqiqat haqida falsafiy mushohadalar yuritgan. Olim sheʼrni ichki musiqiylik, mazmun va shakl uy gʻunligi, gʻoyaning ifoda shakli nuqtai nazaridan k oʻrib chiqadi. Xususan, u gʻazal janrining emotsional kuchi, qisqalik va aniqlik orqali katta maʼno ifodalashi haqida qimmatli fikrlar bildirgan.

NATIJA.

Shu tariqa, bu uch olimning yondashuvlarini taqqoslaganda, Maqsud Asadov asosan shakl va estetik qurilishga, Najmiddin Komilov tasavvufiy-falsafiy mazmunga, Nusratullo Jumax oʻja esa syujet va psixologik obrazlar tahliliga ur gʻu bergani k oʻzga tashlanadi. Bu tahlillar shuni k oʻrsatadiki, mazkur uch olim Navoiy lirikasiga har biri oʻz metodikasi, ilmiy estetikasi bilan yondashadi. Ammo ularning barchasini birlashtirib turadigan jihat — bu shoirdagi maʼnaviy yuksaklik, badiiy yetuklik va poetik tafakkurning chuqur talqinidir.

XULOSA.

Xulosa sifatida aytib oʻtadigan b oʻlsam, mustaqillik yillarida Alisher Navoiy lirikasini oʻrganishga doir ilmiy izlanishlar yangi bosqichga k oʻtarildi. Bu davr navoiyshunosligi avvalgidan farqli ravishda shoir ijodini faqat shaklan emas, balki chuqur mazmun va maʼno jihatidan, ayniqsa ijtimoiy-falsafiy va maʼnaviy-ruhiy qatlamlarda talqin qilishga intildi. Maqsud Asadov, Najmiddin Komilov va Nusratullo Jumax oʻja tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar Navoiy lirikasining har bir qirrasini — uning poetik tuzilmasi, ruhiy-falsafiy mazmuni va lirik syujeti — oʻziga xos tarzda ochib berilishini taʼminladi.

Demak, mustaqillik yillarida Navoiy ijodiga b oʻlgan yondashuvlar uning lirikasini yangicha ilmiy-estetik asosda oʻrganishga keng imkoniyat yaratgan b oʻlib, bu holat oʻzbek adabiyotshunosligining yuksak rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

References:**Используемая литература:****Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Asadov M. *Alisher Navoiy lirikasi poetikasining ayrim masalalari*. — Toshkent: Fan, 1993.
2. Asadov M. *Navoiy va mumtoz she'riyat poetikasi*. — Toshkent: Akademnashr, 2004.
3. Komilov N. *Ma'nolar olamiga safar*. — Toshkent: Sharq, 1996.
4. Komilov N. *Xizr chashmasi*. — Toshkent: Ma'naviyat, 2001.
5. Jumax o'ja N. "Shoh g'azallarning zamonaviy talqini" // *Fan va turmush*, 2010, №2.
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-kecha-kelgumdur-debon-ul-sarvi-gulro-kelmadi-munojot.html>

INNOVATIVE
ACADEMY